

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7830741>

**Eshimbetova Fotima**

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola Javlon Jovliyevning o'ziga xos yangi ohang va yangicha uslub bilan yozilgan "Qo'rqma" romani haqida. "Qo'rqma" yangi davrning yangi va dardchil, yangicha uslubda va o'ziga xos yangi ohang bilan yozilgan yangi romanidir. Javlon o'z fikri, niyati ifodasi uchun shunday – hech kimda o'ylamagan bir badiiy usul-yo'lni topibdi. Yangilik topildiqlar bilan go'zal va adabiyotdagi orginallik taqliddan qutulish bilan, yangicha rang bilan betakror bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *Sobiq Sovet ittifoqi, Germaniya, drammatika, tragikomediya, Abdurauf Fitrat, Munzim, lirotragik obraz, Bahodir Karimov, kulminatsiya.*

Yaqin o'tmishdagi barchaga ma'lum va mashhur alamli hodisalar va Germaniyaga borib o'qigan talabalar taqdirini bayon etishda roviy — so'zamol yigit roman markazida turadi. Bu bolaning tug'ilishi qiziq. Olti oyligidayoq ota-onasidan ajralgan, ammo yozuvchi fantaziyasiga ko'ra, u aynan o'sha mahali tafakkur va tasavvur egasiga aylanadi. Olti oylik chaqaloq hech qachon tevaragida nimalar bo'layotganini bilmaydi, albatta. Ammo yozuvchining qalami sizni shu g'aroyibotga ishontiradi. Badiiy ijodda qalamning ishontirish kuch va quvvati juda muhim sanaladi. Romanda lirika bilan fojia uyg'unlashib ketadi. Dramatik turda tragikomediya degan janr mavjud. Lekin lirotragik roman degan adabiy-nazariy tushuncha mavjud emas. "Qo'rqma" — shunday roman. Roviylar kulib yashaydi, o'ylanadi, mudraydi, uxlaydi, uyg'onadi. Darvoqe, bu roman tush va xush, uyqu va uyg'oqlik, muhabbat va nafrat — shu kabi bir qator kontrastlar uyg'unligidan maydonga kelgan. Shuning uchun yozuvchi o'z roviy qahramoni xayoliga istagan bir voqea-hodisani singdira oladi va buni o'quvchi ko'pincha juda tabiiy va samimiy qabul qiladi. Ba'zida ko'ngliga o'tirmagan allanimadan g'ashlanadi ham. Roman qahramoni fikrchan odam, juda ulkan oshkora taftishchi. O'zini va o'ziga yaqin-yiroq odamlarni, ularning oilasini, o'ziga tengqur talabalarni real hayotda va xayol ko'zgisida ayovsiz taftish etadi, eng muhimi, o'tgan asr boshlarida xorijga ketgan talabalar dunyosini, orzu-istaklarini tahlil etib, zamona yoshlarining turmush tarzi bilan taqqoslaydi. Romanning o'ziga xos uslubida vaqt va voqelik tizimi, xronologik ketma-ketligi, ularning chegaralari istalgan mahali buzilishi mumkin va bu hol tabiiydek tuyuladi ham.

Go'ri Amir maqbarasiga borib, Vatanga xizmat borasida ont ichib, Germaniyaga o'qishga ketgan talabalar qismati juda murakkab, juda qiziq. Sattor Jabbor, Maryam Sultonmurodova, Ahmad Shukriy, Abduvahob Murodiy, Xayrinisa Majidxonova kabi talabalarni, u yerda "Ko'mak" jurnali chiqarganini, teatr truppassi tashkil etishganini

ko'pchilik tarixchilar yaxshi biladi. Romanda ularning maktublari, tergovchilar bilan bo'lgan savol-javoblari keltiriladi. Bular badiiy adabiyotning ramz tiliga mahorat bilan ko'chiriladi. Talabalarning o'qishida Olimjon Idrisiy degan shaxs Buxoro va Turkiston hukumati bilan Germaniya o'rtasida tilmochlik qiladi. Grigoriy Meyerson degan g'alati shaxs talabalarni majburlab ortiga qaytarish uchun Sobiq ittifoq vakili bo'lib Berlinga boradi. Germaniyada o'qiyotgan talabalar qarshiligiga uchragan Meyerson "Qo'rqma" muallifining ham nafratidan bebahra qolmaydi. "Sichqon yaxmalak uchsa arzigulik bosh! Toshbaqa bo'yniday bujmaygan quloq! Qishloq yo'liday notekis bashara! Itbaliqlar suzgudek ko'z! Boyo'g'li qidirgan ikki vayrona — burun! Bularning barchasi, Meyerson shaxsiy mulki". Sochilmagan, bir joyga jamlangan, noan'anaviy va yozuvchining antipatiyasi bilan chizilgan portret.

Romanning ifoda yo'sinida ortiqcha "dedi-dedi"lar ham, zerikarli uzundan-uzun dialoglar ham yo'q. Jumalari ma'nili, ta'sirli va pishiq. Biror qisqa jumla boshini o'qiysiz, uning davomi siz o'ylagancha tugamaydi. Boshqacha fikr, boshqacha so'z va qo'shimchalar bilan tuganchiga yetadi gap. Shuning uchun o'sha jumlaning qayta o'qishga zarurat sezasiz. Haddan tashqari faylasuf, oqil-u dono bo'lishga ruju qo'yish ham kuzatilmaydi. Romanda alg'ov-dalg'ovli asr voqealari, o'tgan zamon va uning ichida harakatlanayotgan insonlar obrazi bor. Asosiy sahnada — roviy.

"Qo'rqma" — taqdirlar, tahqirlar, ta'bir va tadbirlar romani. Unda tarix, ingranish, chorlov, nadomat, nafrat, mehr-muruvvat mujassam.

"Qo'rqma" — dardlar garmoniyasi. Bu romanni fikrlab, xayol va aqlni ishga solib, ora-sira chalkash syujetning uzilgan iplarini ulab o'qish kerak.

Kitobda deyarli hamma bilib, aytib, ammo yoza olmay, ko'pchilik ichida yurgan hodisalar bayon qilinadi. Ularni Javlon Jovliyev original uslubda ifoda etadi. Voqelik haqiqatini ayta olish yo'rig'i – bu uslubiy yangilik har kimning e'tiborini tortadi. Asarda mustabid zamonlarni qo'rsab qolgan chollar tasvirlangan sahifalar keladi va roviy bunday o'rinlarda tahdiddan ham toymaydi: "Men shu chollarning og'zini tuproq bilan to'ldirgim keladi". Ayrim og'riqlar asosiy mavzuga o'xshatish san'ati bilan oson bog'lanadi: "Orol kabi yo'qlikka singib ketgan yigitlarni topa olarmikanman?", "Orol dengizi kabi mamlakatda qahramon ham qurigan bo'lsa abadulabad!" Yozuvchi ba'zan ilgari surilayotgan adabiy tezis bayoni uchun o'tgan asrning 20-yillari talabalari tafakkuridan foydalanadi: "Biz mag'lub millatimiz, g'ururni unutgan, qorin uchun yashashga o'rgangan va ko'ngan!". Berlinda o'qiyotgan zamonaviy talabalarga baho beriladi: "O'qish bahona daromad uchun kelganlari ham hisobsiz". Haqiqat achchiq bo'ladi. Lolani izlab Berlinga borgan yigitdan u yerda o'qiyotgan hech kim Vatan to'g'risida bir og'iz so'z so'ramaydi. Shuning uchun ularga "ziyoli ko'rinishidagi jaholatsan, vafo niqobidagi xiyonatsan", deb ochiq aytadi. Ziyoli qiyofasidagi johilning bir qirradi asarda Ulug' Kursdosh obrazi orqali ko'rsatiladi. Ulug' Kursdoshlar galereyasi – bular millatni, ma'naviyatni, ilm-fanni bir necha o'n yillar yemirgan eshakqurtlar, madaniy qo'ylar. E'tibor berilsa, romandagi obrazlarga ismlar berilmagan.

Xususan, amakilarini to'ng'ich, suvchi, domla, traktorchi, tabelchi, kenja deb atay umumiy nom bilan ataydi. Nom berishga arzimaydigan toifa ular.

Asarni mehr bilan hikmat va haqiqat izlab o'qigan odam "Sevgi ham besh harf, kafan ham", "O'lim qahramonlik bo'lmagan, tiriklar kerak millatga!", "Tarixga tupurish san'ati fan qilib o'qitildi" kabi jumalarga duch keladi. "Yo Xudoyim, to qiyomat Vatan bizga omonatdir, omonatdir, unga xiyonat – qiyomatdir, qiyomatdir, qiyomatdir!". Roman shunday xitob bilan tuganchiga yetadi.

Tanqid va xato – izlagan uni ham romandan bemalol topadi. "Haqiqatni topishdan ko'ra, xatolarni topish oson bo'ladi" (I.V.Gyote). Negiziga achchiq haqiqatlar singdirilgan asarlarning haqiqatini topib o'qish va uqish kerak.

Tabiiyki, "Qo'rqma" romanini o'qish jarayonida fikrlar paydo bo'ladi: badiiy asar his-tuyg'uli, hayrat-hayajonli, quvonch-qayg'uli, fayzli bo'lsa, misoli gurkiragan yam-yashil daraxtga o'xshab ko'rinadi. Bunday sifatlarga ega bo'lmagan asar ham daraxt. Ammo uning barglarini sovuq urgan, ildizi bo'sh, shoxlari qurib qotgan bo'ladi. Ko'zga xunuk ko'rinadi, soyasi o'ziga tushmaydi. "Qo'rqma" — gurkiragan yam-yashil daraxt. Ammo ora-sira bir-yarim quruqshoq novdalari ham bor. Odam ba'zan o'sha shoxchalarga osilib oladi. Holbuki, ularni gulqaychi bilan beozorgina butash kerak. Shuningdek, ayrim behayo, yalang'och epizodlarni pardalash, o'zbekning qiyl-u qoli va mukarram holiga noloyiq ayrim tasvirlarni badiiy adabiyotning ramzlar tiliga ko'chirish lozim ham edi. Yumshoq qilib, ayab aytganda, go'yo arzimasi bo'lib ko'ringan bunday nuqtalar asarning umumpafosiga zaha yetkazadi. Yoshlikka bahor va yashillik yarashadi. Yoshlik ehtiroslar, orzular, tuyg'ular, yaxshilik va yashillik bilan birga tug'ishgan bo'ladi. Orzular bahor bilan aka-uka, opa-singil tutinadi. "Qo'rqma" yosh yozuvchining shunday palladagi ijod mahsulidir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karim, B. Lirotragik roman – "Qo'rqma" asari haqida "Ma'rifat"
2. Abduxakimov, I. "Qo'rqma" asari haqida (Javlon Jovliyev)\_Civil.uz
3. Jovliyev, J. (2021). "Qo'rqma" Nihol nashr
4. Ma'naviyat yulduzlari (1999). (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent,
5. Bobonur, Sh. (Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" asari haqida) "Yoshlar ovozi"
6. Холиқова, Н. (2020). Ўзбек мумтоз адабиётида хотин-қизлар образининг бадий тадрижи (Ширин образи мисолида). Academic research in educational sciences, (3).
7. Kholikova, N. D. (2020). The genesis and poetic evolution of character Shirin. Alisher Navoi and the XXI century.

8. Djokhongirovna, K. N. (2020). The period of national awakening in uzbek poetry echo of the treasure voice of the nation. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(6), 4045-4054.

9. Холикова, Н. (2020). 9-синф адабиёт дарсида ширин образини генезисига кўра ўрганиш. *Science and Education*, 1(Special Issue 2)